

OLIIY TA'LIM TALABALARINING MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRINSHGA YANGICHA YONDASHUV - DAVR TALABI

Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta'lim fakulteti

Maxsus tayyorgarlik sikli o'qituvchisi

Qandov Zikrulla Narzullayevich

Buxoro davlat pedagogika instituti

Harbiy ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi.

Ismoilov Hayotjon

Annotatsiya: maqolada bo'lajak pedagog kadrlarni boy ma'naviy-madaniy meros, milliy pedagogik qadriyatlar, buyuk Sharq mutafakkirining pedagogik qarash, ta'limotlari bilan qurollantirishning bugungi kundagi o'rni va ahamiyati, shuningdek uni oliy ta'lim tizimida amalga oshirishning samarali pedagogik shakl, vosita va usullari o'z ifodasini topgan.

Tayanch so'zlar: Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, komil insonni tarbiyalash, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik.

Аннотация: В статье речь идет о богатом духовном и культурном наследии будущих учителей, национальных педагогических ценностях, педагогической роли великого восточного мыслителя, актуальной роли и важности оснащения их учением, а также эффективной педагогической форме его реализации в высшей школе. обучение инструменты и методы.

Ключевые слова: развитие Родины, благосостояние народа, общественное сотрудничество, воспитание совершенной личности, межнациональное согласие, межрелигиозная толерантность.

Abstract: the article deals with the rich spiritual and cultural heritage of future teachers, national pedagogical values, the pedagogical role of the great Eastern thinker, the actual role and importance of equipping them with teaching, as well as an effective pedagogical form of its implementation in higher education. learning tools and methods.

Keywords: development of the Motherland, welfare of the people, social cooperation, education of a perfect personality, interethnic harmony, interreligious tolerance.

Bugungi kunda dunyo miqyosida g'oyaviy tahdid va axborot xurujlari kuchayib, odamlar ongi va qalbini egallash borasidagi kurash tobora murakkab tus olmoqda. Ayniqsa, turli xil terroristik oqimlar, missionerlar va boshqa jangovar to'dalar o'zlarining yovuz maqsadlarini aynan axborot yordamida amalga oshirayotgani, bunda ular asosan, yosh avlod ongidagi g'oyaviy bo'shliqni, dastlab yolg'on rag'bat, keyinchalik esa yovuzlik va tubanlik bilan zaharlash orqali egallash uchun kurashmoqda. Bunday keskin vaziyatda xalqni, jamiyatning taraqqiyoti va tinchlik-farovonligini, avvalo, ezgulik, ma'naviyat va ma'rifat bilan sug'orilgan mafkuragina qutqara oladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim va tarbiya siyosatida o‘zining kelayotgan yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish, ularda yuksak ma’naviyat va madaniyatni shakllantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri etib belgilangan. Yoshlarda yuksak ma’naviyat va madaniyatni yuksaltirish asosiy vazifalardan biri ekanligining boisi shundaki, «har qaysi davlat, har qaysi millat birinchi navbatda o‘zining yuksak madaniyati va ma’naviyati bilan kuchlidir».

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘zining «Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch» asarida «ma’naviyat» tushunchasiga ta’rif berar ekan, bu insonning barcha qarashlari, ya’ni «g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy, axloqiy qarashlari mezonidir», deb ta’kidlaydi. Yoshlarda bunday yuksak ma’naviy qarashlarni esa faqat «uzluksiz ma’naviy tarbiya orqali» shakllantirish mumkin. Ushbu yuksak vazifani ro‘yobga chiqaruvchi o‘qituvchi-murabbiylarga davlat va jamiyat katta ishonch bildirib, uning sharaflari mehnatini ulug‘laydi.

Yoshlarda yuksak ma’naviyat, madaniy qarashlarni shakllantirishda o‘qituvchi va murabbiylar barcha omillar: o‘z ijodiy-pedagogik faoliyati, pedagogik mahorati, pedagogik texnologiya va texnikasi, pedagogik muloqot etika-estetikasi, ta’lim va tarbiyaning yaxlit bir butunligi, o‘tmish mutafakkir-olim-pedagoglari va xalqimizning boy madaniy merosi, milliy va umumbashariy ma’naviy-axloqiy, badiiy-estetik qadriyatlar, folklor, san’at va uning har xil turlaridan samarali foydalanib, ularni «ommaviy madaniyat» ta’siridan saqlashi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorida kadrlar tayyorlash mazmunini qayta ko‘rib chiqish, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash, oliy ta’limning ma’naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarda mustaqillik g‘oyalari, yuksak ma’naviyat va insoniylikning milliy an’analariga sodiqlik ruhini singdirish kabi tarbiyaviy ishlarni yuksak saviyada olib borish dolzarb vazifa etib belgilangan.

Demak, yoshlarni milliy-ma’naviy ruhda tarbiyalashda o‘z madaniy qadriyatlarimiz va buyuk allomalarimizning bizga qoldirgan meroslaridan samarali foydalanish, ularning ma’naviy dunyoqarashini yanada kengaytirish zarur. Natijada o‘quvchi-yoshlar ajdodlar tarixi, adabiyoti, san’ati, an’analar va urf-odatlar haqida chuqur bilimga ega bo‘ladilar, ularning ma’naviy merosga bo‘lgan qiziqishi oshib, ma’naviy-axloqiy madaniyati yanada takomillashadi.

Buyuk mutafakkir pedagog-olimlarimizdan biri al-Farobiy o‘zining ko‘plab asarlarida ta’lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ustoz va shogird, ta’lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida» kabi asarlarida bugungi kunda ham dolzarb bo‘lgan, o‘quvchi-yoshlarni ijtimoiy-tarbiyaviy jihatdan komil inson qilib tarbiyalash g‘oyalari o‘z ifodasini topgan.

Farobiy o'z asarlarida ta'lim-tarbiyani birgalikda, uzviy bog'lab olib borish haqida fikr yuritarkan, ularning har biri insonni kamolga yetkazishda o'z o'rnini va xususiyati bor ekanligini ham alohida ta'kidlaydi.

Uning fikricha talim-tarbiya jarayoni tajribali pedagog o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhimdir. Chunki, har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarni o'zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim. Bunga Farobiy ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri bilib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya etadi.

Demak, Farobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. Insonning kamolga yetishida ham aql, ham axloqiy tarbiyaning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Farobiy tavsiya etgan ta'lim-tarbiya usullari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi bilan diqqatga sazovordir.

Ana shunday pedagog olimlarimizdan yana biri Abu Rayhon Beruniydir. Beruniyning talimiy-tarbiyaviy qarashlari hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari bugungi kunda ham dolzarbdir. Talabaga bilim berishda uni zeriktirmaslik, bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik, uzviylik, izchillik, tahlil qilish va taqqoslash, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, soddadan qiyinga qarab borish, takrorlash, yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish va hokazoga e'tibor berish kerakligini uqtiradi.

Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasi ham e'tirof qiluvchi - irsiyat, muhit va tarbiyadir.

Ma'lum bir davrda olimlar inson kamolotiga irsiyat, muhitning ta'sirini inkor etib, faqat tarbiyani tan oldilar. Lekin, Beruniy o'z zamondoshlari – buyuk mutafakkirlar Farobiy, Abu Ali ibn Sinolar kabi inson kamolotida har uchalarini ham muhim deb hisoblaydi. Ya'ni, u insonning kamolotga yetishida ilmu-ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy rol o'ynasada, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy nazarida inson kamolga yetishining eng muhim omillari ilm-ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir[3]. Beruniy ilmiy bilishga oid, ta'lim metodlari haqidagi qarashlari bilan ta'lim nazariyasida o'ziga xos maktab yaratdi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari faqat o'z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega.

Zero, uning o'zi ham haqiqiy komil insonga xos xislatlarga ega ekanligini, hayoti va ijodiy faoliyati, yozgan asarlari bilan isbotlab, kelajak avlodlarga katta ma'naviy meros qoldirdi.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo'yicha Oliy ta'lim tizimini 2017-2021 yillarda kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Bo'lg'usi pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga har tomonlama tayyorlash, ularni metodologik, nazariy, metodik bilimlar bilan qurollantirishda milliy-ma'naviy pedagogik qadriyatlar, buyuk Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limotlariga tayanib ish ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy pedagogik ta'lim va tarbiya jarayonida talabalarning bunday bilim, ko'nikmalarga ega bo'lishlari nafaqat pedagogika fanlarini o'qitish, balki ijtimoiy-gumanitar, xususiy metodika fanlarini o'zlashtirish jarayonida ham amalga oshiriladi. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun professor-o'qituvchilar o'quv-tarbiya jarayoniga puxta tayyorgarlik ko'rgan, o'quv-uslubiy manbalar bilan to'liq ta'minlangan, fanlarni o'zaro integratsiyalash ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lmog'i zarur.

Bugun mamlakatimiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o'zlashtirgan kompetensiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish natijasida ta'limda sifat va samaradorlik ta'minlanib, pedagogik innovatsion jarayon vujudga keladi.

Pedagogik innovatsiya – bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u oldingi egallangan bilimlar asosida ta'limda sifat jihatidan o'zgarishlar qilib, yuqori samaradorlikka erishishga yangicha yondashuv qilishdan iboratdir. Bunday tizimning maqsadi deganda, ta'limning mazmun-mohiyati, belgilarini, imkoniyatlarini, vazifalarini, taraqqiyot bosqichlari va tamoyillarining rivojlanish mexanizmlarini va ulardan foydalanishga uslubiy tavsiyalar hamda bu borada pedagoglarda shakllanadigan xislatlarni hosil qilish jarayonini ifodalovchi ta'lim-tarbiya tizimi sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirib, bu sohada yuqori samaradorlikka erishish tushuniladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimidagi islohotlarning muammolari pedagog kadrlar salohiyati bilan bog'liq. O'rganish va tahlillar zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligi

tezkor rivojlanayotgan ta'lim jarayonlarining talablaridan orqada qolayotganini ko'rsatmoqda. Bu holat pedagogik ta'limni rivojlantirish va uzluksiz ta'lim jarayonida pedagoglarni tayyorlashni yaxshilash bilan bog'liq muammolarning dolzarbligini ko'rsatadi. Ushbu muammolarning jiddiyligi shubhasizdir – muntazam o'tkazilayotgan monitoring jarayonlarida ta'lim tizimining tezkor yangilanishi natijasida yuz berayotgan o'zgarishlarga javob berish va ulardan o'zib ketishga etarli tayyor bo'lmagan pedagog kadrlar mavjudligi, ta'limga, shaxsga va o'qituvchilar faoliyatiga bo'lgan zamonaviy ijtimoiy talablar va bu talablarga etarli darajada javob bermaydigan pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining holati aks etmoqda.

Belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish uzluksiz pedagogik ta'limga bo'lgan konseptual qarashlar tizimini rivojlantirishni, pedagog kadrlar kasbiy-shaxsiy rivojlanishining psixologik-pedagogik shart- sharoitlarini aniqlashni talab qiladi. Fanlararo tadqiqotlarning natijalarini jamlaydigan pedagogik konsepsiyaning mazmuni uzluksiz pedagogik ta'limning mohiyatini – ta'limning maqsadi, mazmuni, o'qitishning metodlari va shakllari hamda ular tarkibiga kirgan aniq ta'lim texnologiyalari, pedagogning uzluksiz ta'limi jarayonining samaradorligi mezonlari, boshqaruv mexanizmlari kabi kategoriyalar orqali ochishda ko'rinadi.

Mazkur kategoriyalarni amalda bajarish o'z navbatida ta'lim-tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim tizimiga tez sur'atlar bilan kirib kelishi va tobora takomillashib borishi o'quv jarayoniga elektron didaktik vositalarni yaratish va uni tatbiq etishga ehtiyoj tug'dirmoqda.

Shu bois ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-texnika rivojlanishining ilg'or tendensiyalaridan biri sifatida zamonaviy jamiyatning ko'pgina tomonlarini qamrab olgan. Axborot industriyasi, axborot texnologiyalari jadal ravishda yaratilmoqda.

Elektron didaktik vositalar zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangitdan saqlash, bilimlarni interfaol usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniga ega bo'lgan manba hisoblanadi. Elektron didaktik vositalar o'quvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarni rivojlantirishga va qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlanishga qaratilgan bo'ladi.

Shuning uchun, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar u yoki bu darajada kadrlar tayyorlash jarayonlarining axborot ta'minotini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni belgilaydi. Axborotlar ularni saqlash, qayta ishlash va etkazib berish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda o'qitish va tarbiyalashga bo'lgan yondashuvlar ko'pchilik ilmiy tadqiqotlar va davlat dasturlarida asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Axborot texnologiyalarini uzluksiz pedagogik ta'lim tizimiga tatbiq qilish yildan yilga keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Axborotlashtirish jarayonida pedagogik hamjamiyat tomonidan ko'p sonli axborot resurslari ishlab chiqilmoqda, lekin, bu ishlarni etarli deb

bo'lmaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalar va kompyuter tarmoqlari axborot resurslariga kirish va yig'ishning butunlay yangi imkoniyatlarini yaratdi. O'qitishning turli shakllari bilan birgalikda va birlikda ta'limni takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi.

Bunday imkoniyatlardan biri sifatida axborotli yondashuv e'tirof etiladi. Axborotli yondashuvning empirik negizi o'quv axborotlarini qayta ishlash, uzatish, saqlash va o'zgartirishning hozirda mavjud bo'lgan amaliy tajribalarini tahlil qilish, uni umumlashtirish va muayyan qonuniyatlarini aniqlashga asoslanadi.

Ta'lim oluvchining axborotga bo'lgan ehtiyoji, uning rivojlanish darajasi, ta'lim oluvchining olingan axborotlarni o'z faoliyati jarayonida foydalana olishga tayyorlanganligi, unga berilayotgan axborotlarning to'liqligi va qimmatliligi darajasiga bog'liq.

Ko'ryapmizki, ta'lim jarayonida axborotlar aylanishining tahlili bilim va axborotlar nisbatini o'rganishni, bilimning axborotliligini ko'rib chiqishni ko'zda tutadi. Boshqa tomondan, axborotning ta'lim oluvchilarning o'quv-biluv faoliyati bilan aloqalari muammosini ishlab chiqish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Bu muammo o'quv axborotlarining o'quv biluv faoliyati ob'ekti sifatidagi xususiyatlarini hamda ta'limning axborotli tomonlarini ochish imkonini beradi.

O'quv axborotlari, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati, uning ehtiyojlari, maqsadlari axborotni egallash psixologiyasi bilan qanchalik ko'p muvofiqlashtirilsa, ulardan shunchalik samarali foydalaniladi. Bunday muvofiqlashtirishning funksiyalarini axborotli holatlarda pedagog bajaradi. Ta'lim jarayonining natijaviyligiga sharoit yaratadigan psixologik qonuniyatlar va faktlarni hisobga olmasdan turib, pedagogik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish mumkin emas.

Axborotlarni qo'llash, faqat ular o'lchangani, qayta ishlangani holdagina, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasida uni o'zlashtirish va o'zaro almashish qobiliyatlarini hisobga olgan holda baholash va me'yorlash amalga oshirilgan bo'lsagina pedagogik jihatdan foydali bo'ladi. Shuning uchun hozirgi vaqtda ta'lim jarayonining asosini tashkil etadigan axborotlarni baholash muammosi o'ta dolzarb hisoblanadi.

Lekin har qanday o'zgarishlar axborotlarning muhim tasnifiy xususiyatlarini: ishonchlilik, tizimlashtirilganlik, to'liqlik, aniqlik, operativlik, kamxarjlilik, foydalilik, qimmatlilikni saqlab qolishi lozim. Albatta, axborotlarning u yoki bu sifatlarining bo'lmasligi yoki etarli emasligi nafaqat ta'lim jarayoniga, balki pedagog faoliyati natijalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Insonning axborotlashgan jamiyatda yashash tarzining tubdan o'zgarishi, axborotlashgan jamiyat vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan ilmiy-texnika va ijtimoiy taraqqiyotning voqeliklari ularni zamonaviy ta'lim mazmuniga, ta'lim tizimlarining ko'lam va rivojlanish darajasiga mos kelmasligiga olib keldi.

Hozirgi kunda XXI asr yuksak texnologiyalar zamoni, tafakkur va yalpi axborotlashuv

asri, globallashuv davri deb ta'rif etilmoqda.

Globallashuv – insoniyatning ongu shuuri, tafakkuri samarasi sifatida vujudga kelgan jahon miqyosidagi umumiy jarayon, u chegara va hududlarni bilmaydigan, tuzumlarni tan olmaydigan, uzluksiz kuchayib va rivojlanib borayotgan jarayondir. Ana shunday globallashuv davrida har qanday davlatning taraqqiy etishi, uni rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o'rin olishi, birinchi navbatda, davlatning intellektual salohiyati, ish avlod ta'lim-tarbiyasi va zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimiga bog'liqdir.

Ta'limning innovatsion elektron-didaktik shakllari – ta'lim oluvchining qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya mazmunini, ta'lim maqsadiga mos ravishda loyihalash hamda pedagogik, axborot-kommunikatsion uslublar, shakllar va o'qitish usullarini tatbiq etishga yo'naltirilgan psixologik, umumpedagogik, didaktik va shaxsiy uslubiy tartiblar asosida amalga oshiriluvchi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tizimidir.

Axborot-ta'lim muhitini yaratish ta'limda axborotlashtirish jarayonini rivojlantirishning ob'ektiv natijasi bo'lib hisoblanadi. Ta'limni axborotlashtirishning maqsadi axborot – kommunikatsion texnologiyalarni jalb qilish va qo'llash hisobiga intellektual faoliyatni global jadallashtirishdan iborat.

Ushbu muammolarni hal qilish doirasida texnologiyalar va axborotlashtirish vositalarini bir tizimga birlashtirishning pedagogik, metodik va texnologik asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan tadqiqotlar o'tkazish lozim.

Xalqaro tajribalarning ko'rsatishicha, oddiy yozishma asosidagi kommunikatsion axborot-ta'lim muhiti ijobiy pedagogik natijaga olib keladi. Turli shaharlar, mintaqalar va davlatlar ta'lim oluvchilarining tarmoqdagi birgalikdagi o'quv faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli elektron, axborot-didaktik vositalar hisoblanadi.

Har qanday muammo yechimi integratsiyalashgan bilimni talab etadi. Axborot-ta'lim muhiti chuqurlashgan bilimlar integratsiyasini, nafaqat tadqiq qilinayotgan muammo yuzasidan fan bilimlari sohasini, balki hamkorning milliy-madaniy xususiyatlarini, uning dunyoni bilishi va tushunishini, qarashlarini bilishni ham taqozo qiladi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g'oya va tahdidlardan asrash, ularni o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda".

Ayni shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6- noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni [2] qabul qilinganligi bu borada katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tizimida talaba – bo'lg'usi o'qituvchilarni qadimiy va boy meroslarimiz, ma'naviy-madaniy qadriyatlar, mutafakkir olimlarimizning pedagogik qarashlari, ilm olish yo'llari va sirlari haqidagi ta'limotlari bilan qurollantirish

o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, manaviy merosga muhabbat, sadoqat, milliy o'zlik va g'ururni anglash ruhida kamol topishga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Haqiqatdan ham bugungi kunda ma'naviyat, ilm-fan va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda yuksak marralarga erishimizning asosi sifatida yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev so'zlari bilan aytganda "... aziz do'stlar, birodarlar, agar intilsak, astoydil harakat qilsak, har qanday baland marrani egallash qo'limizdan keladi. Biz ma'rifat borasida, ta'bir joiz bo'lsa, "iligi to'q" xalqmiz. Ilm-fanga intilish bizning qonimizda, bugungi til bilan aytganda, genimizda bor" [1].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/3864>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108- son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5085999>
3. Abu Rayhon Beruniy. Tanl. Asarlar. I t. T., 1999 y, 151 bet.
4. Irisov A. Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy merosi, T., «Fan», 1998, 160-bet
5. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. T., "Fan va texnologiya", 2008, 132 bet.
6. Гулбоев А. Т. Формирование профессиональных компетенций экономистов // Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83).
7. Гулбоев А. Т. Гончарное искусство узбеков // Инновационная деятельность в дошкольном образовании. – 2016. – С. 374-376.
8. Гулбоев А. Т. АСПЕКТЫ И ОСОБЕННОСТИ ЦЕЛОСТНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО